



O‘ZBEK MATBUOTIDA IXTISOSLASHGAN NASHRLARNING TASNIFI

Ahmadjonov Muhammadjon Abdurasul o'g'li
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi
Tashkiliy ishlar bo'limi yetakchi mutaxassisi

***Annotasiya.** Ushbu maqolada, matbuot funksiyalari va u bajaradigan ijtimoiy vazifalari alohida keltirib o'tilgan. Shuningdek, ixtisoslashgan gazetalar jamiyat hayotidagi o'rni va ayrim viloyatlardagina bunday maxsus gazetalar chiqirishi hamda tarmoq gazetolari esa jamiyat hayoti, mamlakat iqtisodiyoti yoki tashkiliy tuzilmalarining ayrim tarmog'ini kengroq yoritilishi haqida fikrlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Matbuot, gazeta, tarmoq, funksiyalar, omma, axborot.*

***Abstract.** In this article, the functions of the press and the social functions it performs are cited separately. There are also suggestions that specialized newspapers have a role in the life of society and that such special newspapers will be released only in some regions, and network newspapers will have a wider coverage of the life of society, the economy or some branch of organizational structures of the country.*

***Key words:** Press, newspaper, network, functions, public, information.*

Matbuot nazariyasida matbuot funksiyalari - u bajaradigan ijtimoiy vazifalari masalasi alohida o'rin tutadi. Matbuotning funksiyalari deganda biz matbuot nashrlari va ommaviy axborot vositalarining doimiy va qonuniylik tusini olgan faoliyatini, uning maqsad va yo'nalishlarini tushunamiz. Matbuotning ijtimoiy vazifalari haqida turlicha qarashlar mavjuddir. Kommunistik tuzum davrida matbuotning funksiyalari «kollektiv targ'ibotchi, kollektiv tashviqotchi va kollektiv tashkilotchi»likdan iborat, deb ko'rsatilgan edi. Matbuotning vazifasi yuqorida ko'rsatilganidek faqat biror g'oyani targ'ib va tashviq qilishdan iborat bo'lmasdan ommaga xolis, ob'yektiv ijtimoiy axborotlar yetkazib berishdir. Hozirgi zamon rus matbuotshunosi Ye.P.Proxorov matbuotning asosiy vazifalarini ijtimoiy, mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy va bevosita tashkilotchilik kabilarga bo'ladi¹. Yuqorida keltirilganidek, matbuot ijtimoiy hayotni aks ettirish shakllaridan biri, real voqelikni bilish, tadqiq etish va unga qaytadan ta'sir ko'rsatishning muhim vositasidir. Ya'ni, matbuotning bosh vazifasi - ijtimoiy hayotni aks ettirish, ijtimoiy axborotlar yig'ish va ommaga yetkazib berishdan iborat. Matbuot nashrlari va ommaviy axborotning barcha turdagi vositalari doimiy ravishda jamiyat hayotini yoritish, uni tadqiq qilish va unga qaytadan ta'sir etish vazifasini bajarib keladilar. Bundan shu narsa ko'rinib turibdiki, matbuotning ijtimoiy vazifalari uch tarkibiy

¹ Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. – Б. 30.



qismga, qirralarga bo‘linadi. Biz bu qismlarni shartli ravishda tasvir, tahlil va ta‘sir deb olami².

Ixtisoslashgan gazetalar jamiyat hayotining ayrim tomonlarini kengroq yoritib, umumsiyosiy gazetalarini to‘ldirib keladilar. Ixtisoslashgan gazetalar odatda markaziy gazetalar hisoblanadi, faqat, ayrim viloyatlardagina bunday maxsus gazetalar chiqirilishi mumkin.

Tarmoq gazetolari esa jamiyat hayoti, mamlakat iqtisodiyoti yoki tashkiliy tuzilmalarining ayrim tarmog‘ini kengroq yoritish uchun nashr etiladi. Bunday gazetalar, odatda biror-bir soha bo‘yicha vazirlik yoki shu maqomdagi tashkilot tomonidan chiqariladi. Bunga misol qilib respublika Aloqa vazirligi tomonidan chiqarilayotgan «Xabar», Ichki ishlar vazirligining «Postda», Temir yo‘llar idorasiga qarashli «Temir yo‘lchi» gazetalarini ko‘rsatish mumkin. Bunday gazetalar asosan shu sohada ishlovchi kishilar uchun, ayrimlari esa keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Ayrim tuman va korxonalarda chiqariladigan umumsiyosiy gazetalar (masalan, asosan chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi biror tuman gazetasi, oliy o‘quv yurtlari yoki yirik sanoat korxonalarida chiqadigan ko‘p tirajli gazetalar) ma‘lum ma‘noda tarmoq gazetalariga yaqin turadilar. Tarmoq gazetolari ham jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotini umumlashtirgan holda o‘z tarmog‘i hayotini esa keng va chuqur yoritib, gazetaning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi³. Respublikamizda istiqloq yillarida ommaviy axborot vositalarining qonuniy bazasi yaratilib, jurnalistlarga erkin faoliyat yuritishi uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, so‘z va matbuot erkinligi insonning boshqa asosiy huquqlari qatori o‘zining konstitutsiyaviy kafolatini topdi. O‘zbek matbuotida ixtisoslashgan nashrlar soni yildan yilga oshib bormoqda. 2015 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, yurtimizdagi ommaviy axborot vositalarining soni 1392tani (689ta gazeta, 283ta jurnal va 100ta TV va radiolar, 304ta veb-saytlar), 2016 yil 1 yanvarga kelib ular soni 1461tani (686tasi gazeta va 300tasi jurnal, 96 ta Tv va radio) tashkil etib, 2017 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, ularning soni 1514tani (1015ta bosma OAV, 100ta TV va radiolar, 395ta veb-saytlar va 4ta axborot agentligi) tashkil etdi. Buni birgina ta‘limga ixtisoslashgan nashrlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Son jihatdan o‘shish bilan birga ularning sifat darajasiga ham e‘tibor qaratish maqsadida, bir-birini takrorlaydigan nashrlar faoliyatini to‘xtatilishiga ham sabab bo‘ldi.

² Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. — Б. 31.

³ Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. — Б. 85-86.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. – Б. 30.
2. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. – Б. 31.
3. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. — Т.: Тафаккур, 2011. – Б. 85-86.
4. Mukhammadjonova, Guzalkhan. "Problems Of Creative Human Concept And Artical Interpretation." The American Journal of Social Science and Education Innovations 3.11 (2021): 1-6.
5. Ибрагимов Х., Абдуллаева Ш. Педагогика. Ўқув қўлланма. –Т., Фан, 2004. - 182 б
6. Абдуллаева, Ш. А., & Абдусаматова, Ш. А. (2019). Профилактика правонарушений среди несовершеннолетних учащихся. Молодой ученый, (5), 154-156.
7. Абдуллаева, Ш. А., & Зайнитдинова, М. А. (2018). Совершенствование качества образования в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. Научный результат. Педагогика и психология образования, 4(3)
8. Barziyev, O, N. (2021) Traditional poetic series associated with the name of Fergana. Scientific journal of Fergana State University 3 (3), 108-114
9. Barziyev, O, N. (2021) Фарғона номи билан боғлиқ анъанавий поэтик туркумлар. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ 3 (3), 108-114
10. Saydiyeva, K. G. (2023). THE USE OF ALLUSIVE UNITS IN POETRY. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1132-1136.
11. Keldiyorova, G. S., Qurbonova, N. N., Fatxullaxodjaev, M. Z., & Rixsiyeva, L. A. (2022). Didactic Functions and types of Role-Playing Games that Contribute to the Development of Communicative Foreign Language Speech Skills. Specialusis Ugduymas, 1(43), 10577-10582.
12. Мухитдинова, М., & Эшмаматова, М. (2021). Мировая Культура, Неповторимая Литература В Памяти Великого Поэта Мухаммада Аминхужа Мукикий. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(4), 71-73.
13. Сабирова, Н. Э. (2021). ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ИСКУССТВА ХАЛФА ХОРЕЗМА. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР (pp. 387-390).
14. ОТАЖОНОВА, М. (2017). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЭВОЛЮЦИЯ МИФОЛОГИЧЕСКИХ СЮЖЕТОВ В УЗБЕКСКИХ ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. Научное обозрение Саяно-Алтая, (2), 85-88.